

introducing gender indicators in media policy, and supporting women bloggers to strengthen inclusivity and equality in the information space.

Keywords: civic journalism, gender balance, digital media, media literacy, gender sensitivity, women journalists, Uzbekistan.

About the authors:

Zokirova Oisha — PhD, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Dean of the Faculty of Media and PR,
oisha993wc@gmail.com

BUGUNGI KUNDA GENDER TENGLIK MUNOSABATLARINING IJTIMOY JIHATLARI

Nodira Sa'dullaeva,
O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi yangi O'zbekistonda bugungi kunda gender tenglik munosabatlarining ijtimoiy jihatlarining tahlili va so'nggi yillarda gender tengligi bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar mazkur sohaga oid qabul qilingan qarorlar, strategiya va qonunlar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Gender tengsizligi, xotin-qizlar, gender tenglikka erishish strategiyasi, tazyiq, zo'rvonlik, himoya, kafolat.

Bugungi kunda gender tenglik munosabatlarining ijtimoiy jihatlarining tahlili jahonda dolzarb masalalardan biriga aylangan. Gender tushunchasini erkaklar va xotin-qizlarning jamiyat hayotida birdek faol ishtiroki, ularning teng huquq va burchlarga ega ekanligi deb talqin etish ancha keng tarqalgan. Ammo gender tushunchasi faqat ayollar manfaatini ifodalamaydi. Balki har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashlariga, hayot sifatini oshirish uchun ularga bir xil imkon berish kerakligini ham anglatadi.

Aynan rivojlangan jamiyatlarning talablaridan biri — bu erkak va ayol huquqlari tengligini ta'minlashdir. Zero, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 46-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar" [1], deb belgilab qo'yilgan. Darhaqiqat, gender tenglik — bu mamlakatning demokratik taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan biridir.

Boshqacha qilib aytganda, rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilish, yurtga tobora ko'proq investitsiya jalb qilish, turizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun ham bu omilga alohida e'tibor berish lozim. Afsuski, bugungi kunda O'zbekiston ham "Gender tengsizligi indeksi reytingi"da 57-o'rinda turadi.

Jahonda xotin-qizlar uchun huquq va imkoniyatlarni kengaytirish borasida AQSh uchun ham ustuvor vazifalardan biri

DOI:

<https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi11.235>

Iqtibos:

Sa'dullaeva, Nodira. 2025.
BUGUNGI KUNDA
GENDER TENGLIK
MUNOSABATLARINING
IJTIMOIY JIHATLARI
Markaziy Osiyoda media va
kommunikatsiyalar xalqaro ilmiy
jurnali. 11: 130-133.

sanaladi. Davlat kotibi Mayk Pompeoning ta'kidlashicha: "Gender notenglikka yechim topish bu tez bitadigan ish emas, balki ko'p harakatlar va resurslar talab etadigan katta vazifadir. Gender notenglikka barham berish uchun uzoq vaqt va tizimli ishlar olib borish kerak".

O'zbekiston statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2017 yili iqtisod sohasida erkaklarning 61,5 foizi, ayollarning esa 38,5 foizi mehnat bilan band bo'lgan. BMTning xabar berishicha, o'rta ta'lim olgan xotin-qizlarning faqat 35 foizi ishlaydi, oliy ma'lumotli xotin-qizlarning esa 68 foizi ish bilan ta'minlangan.

2018 yilda O'zbekiston hukumati barqaror rivojlanishning 16 ta milliy maqsadi va 127 ta milliy vazifalarini qabul qilgan edi. Shu bilan birga, gender tenglik bo'yicha 5-maqsadga muvofiq, O'zbekiston quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan:

- butun mamlakatda xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish;
- davlat va xususiy sektorda barcha xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning har qanday shakllarini bartaraf etish;
- jamiyat hayotining barcha darajalarida rahbarlik lavozimlarida xotin-qizlarning to'liq va samarali ishtirokini ta'minlash;
- davlat dasturlarini qabul qilishda gender tengligi tamoyillariga to'liq amal qilish.

So'nggi bir necha yil ichida O'zbekiston gender tengligi va ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish to'g'risidagi ikkita qonunni qabul qildi hamda imkon qadar ko'p sonli ayollarni rahbarlik lavozimlariga, tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish, ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, oiladagi zo'ravonlik holatlariga barham berishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Jamiyat hayotining qay darajada kechishi, rivojlanish sari qo'yilayotgan qadamlar, istalgan harakatdan kutiladigan natijalar ko'p jihatdan ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita bog'liq. Aynan shu munosabatlar hayotimizning barcha jabhalari — mehnat faoliyati, oila, mahalla, o'qish, muloqot va boshqa jarayonlarni boshqarib keladi. Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi masalasi ham ushbu jarayonlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda Prezidentimiz tomonidan xotin-qizlar masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ushbu yo'nalishda tub burilish yasadi.

Oliy Majlis Senatining yigirma birinchi yalpi majlisida ma'qullangan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun ijtimoiy

munosabatlarni tartibga solishda muhim hujjat bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda "gender" tushunchasining noto'g'ri talqin qilinishi ham kuzatiladi. Aslida, gender — bu xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayotining barcha sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihatidir.

Qonunda asosiy tamoyillar sifatida qonuniylik, demokratizm, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, ochiqlik va shaffoflik belgilangan.

Strategiyaga muvofiq, davlat xizmati, ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy va saylov huquqlarini amalga oshirishda tenglik ta'minlanadi. Davlat dasturlarini gender tenglik tamoyillari asosida moliyalashtirish ham ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda ayollarning siyosat va iqtisodiyotga keng jalb qilinishi tufayli gender tengligi borasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Gender tenglik indeksida 188 ta mamlakat orasida 57-o'rinni egallab turibdi. 2019 yilgi parlament saylovlaridan so'ng ayollar ulushi 32 foizga yetdi.

Xulosa qilib aytganda, yangilanayotgan O'zbekistonda gender tenglik masalasi jamiyat rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim dasturlariga gender tenglikka oid kurslarning joriy etilishi yosh avlodda huquqiy madaniyat va o'zaro hurmatni shakllantirishga xizmat qiladi. Gender tenglik jamiyat rivojidagi dolzarb ijtimoiy masala sifatida tobora mustahkamlanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — "O'zbekiston", Toshkent, 2019 yil, 17-bet.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan nutqi. — "Xalq so'zi", 7-mart, 2022 yil.

"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi (O'RQ-562-son) va "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi (O'RQ-561-son) qonunlar. 02.09.2019 yil.

"2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi to'g'risida"gi Senat qarori, 28.05.2021 yil, SQ-297-IV-son.

Muallif haqida:

Sa'dullaeva Nodira — O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti stajyor-tadqiqotchisi (PhD), nodirasadullaeva@gmail.com